

Date: 17th April-2025

OILA MUSTAHKAMLIGI QONUN NIGOHIDA

Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna

Namangan Davlat Universiteti dos. v.b

Axmatov Akbar Ilhom o'g'li

NamDU Yuridik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida oilani qo'llab-quvvatlash va himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati, xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada oilaga berilgan huquqiy maqom va uning jamiyatdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Oila, oila huquqi, oilaviy munosabatlar, oilaviy nizo, yarashtiruv.

Аннотация: В статье рассматривается государственная политика, осуществляемая в Республике Узбекистан в области поддержки и защиты семьи, с особым акцентом на правовой статус семьи в новой редакции Конституции и её роль в обществе.

Ключевые слова: семья, семейное право, семейные отношения, семейный конфликт, примирение.

Annotation: This article discusses the state policy being implemented in the Republic of Uzbekistan regarding the support and protection of the family, specifically focusing on the legal status of the family in the newly revised Constitution and its role in society.

Keywords words: family, family law, family relations, family conflict, conciliation

Oila – avlodlar davomiyligi, qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni, qolaversa, xalqimiz ma'naviy merosining avlodlardan avlodga o'tishini ta'minlovchi omildir. Shu tufayli oilani qo'llab-quvvatlash masalasi davlatimizning doimiy diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Shu bilan birgalikda Oilani qo'llab-quvvatlash, muhofaza qilish davlatning konstitutsiyaviy burchidir. Davlatning oilaga g'amxo'rliqi qonun asosiga qurilgan bo'lib, avvalo u Oila kodeksida belgilangan. Bundan tashqari, oilani qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati ko'plab hujjatlar qabul qilgan. Oilani muhofaza qilish va qo'llab-quvvatlashda ularni moddiy tomondan qo'llash, ularga moddiy yordam berish chora-tadbirlarining ko'rilishi muhimdir. Davlatimiz boquvchisini yo'qotgan, ko'p bolali oilalarga moddiy yordam berishni o'z vazifasi hisoblaydi va buning amaliy choralarini ko'radi.

Oila qancha mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi va rivojlanadi. Shuning uchun ham Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994 yildan e'tiboran har yili 15 may kunini Xalqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilgani bejiz emas. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 16-moddasida shunday deyilgan: Balog'atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror bir cheklovlarisiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o'tayotganlarida ham, nikohda bo'lgan vaqtda ham va nikoh bekor qilinayotganda ham bir xil huquqlardan foydalanadilar. Shuningdek, Oilaning asosi nikoh bo'lsa, nikoh birinchidan, tomonlarning mutlaq roziligi bilan, ikkinchidan, teng huquqliligi asosida



Date: 17th April-2025

tuziladi. Shundan xulosa qilib aytilsa, nikoh tuzish asoslari tomonlarning roziligi (ixtiyoriylik) va tomonlarning – er va xotinning teng huquqligidir. Nikohlanuvchilarning roziligi haqiqiy bo'lishi, biror tomonning roziligi har qanday tazyiq, qo'rqitish, kuch ishlatish orqali olinmasligi kerak. O'zbekistonda nikoh munosabatlari maxsus qonun bilan tartibga solinib, unda ham nikoh tuzishning ba'zi asoslari belgilangan. Unga asosan, nikoh tuzishga kelgan shaxslar, albatta, qaramaqarshi jins vakillari (erkak va ayol) bo'lishi kerak. Nikoh tuzish uchun ma'lum yoshga yetgan bo'lishi (erkaklar 18 yosh, ayollar 17 yosh) talab etiladi. Bundan tashqari, nikoh tuzish uchun nikohlanuvchilar sog'lom bo'lishi talab etiladi. Sababi, nikoh natijasida qurilgan oilalar albatta farzand ko'rishni maqsad qilib qo'yadi.

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabr' kungi 820 sonli qaroriga ko'ra Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari huzurida Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlarini- tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullangan, Quyidagilar markazlarni tashkil etishning asosiy maqsadi deb belgilangan:

- zamonaviy oilaning namunali shaklini hamda «Oila — muqaddas», «Sog'lom oila — sog'lom jamiyat», «Oila — jamiyat va davlat himoyasida» va «Farovon oila — jamiyat ravnaqining asosi» kontseptual g'oyalarini nikohlanuvchilarning ongiga singdirib borish;

- nikohlanuvchi shaxslarni oilaviy-huquqiy munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va byudjeti, reproduktiv salomatlik asoslari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo'yicha tizimli tayyorlash;

- oilalar mustahkamligini ta'minlash, oilaviy ajralishlarning oldini olish, nikohlanuvchi shaxslarda oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish, oilalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni yaratish hamda ibratli ota-ona bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish.

Oilani mustahkamlash maqsadida mehnat qonunchiligida ham ayollarga bir qator imtiyoz va kafolatlar berilgan. Jumladan, homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi. Homilador ayolni yoki uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayolni ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda ish beruvchi rad etishning sabablarini ularga yozma ravishda ma'lum qilishi shart. Mazkur shaxslarni ishga qabul qilishni rad etganlik ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin, Tibbiy xulosaga muvofiq homilador ayollarning ishlab chiqarish normalari, xizmat ko'rsatish normalari kamaytiriladi yoki ular avvalgi ishlaridagi o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda yengilroq yoxud noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan holi bo'lgan ishga o'tkaziladi. Homilador ayolga yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'siridan holi bo'lgan ish berish masalasi hal etilgunga qadar, u ana shu sababdan ishga chiqmagan barcha ish kunlari uchun o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda ishdan ozod etilishi lozim. Ikki yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar avvalgi ishini bajarishi mumkin bo'lmagan taqdirda, bolasi ikki yoshga to'lgunga qadar avvalgi ishidagi o'rtacha oylik ish haqi saqlangan holda yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan holi bo'lgan ishga o'tkaziladi. Homilador ayollarni va o'n to'rt yoshga to'lmagan bolasi (o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolasi) bor ayollarni ularning

Date: 17th April-2025

roziligisiz tungi ishlarga, ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

Shu bilan birga, homilador ayollarni va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni tungi ishlarga jalb qilishga bunday ish ona va bolaning sog'lig'i uchun xavf tug'dirmasligini tasdiqlovchi tibbiy xulosa bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi. Uch yoshga to'lmagan bolalari bor, byudjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollarga ish vaqtining haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilanadi. Ish vaqtining qisqartirilgan muddati chog'ida ushbu ayollar mehnatiga haq har kungi to'liq ish muddati chog'ida tegishli toifadagi xodimlar uchun belgilangan miqdorda to'lanadi. Homilador ayolning, o'n to'rt yoshga to'lmagan bolasi (o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolasi) bor ayolning, shu jumladan homiyligida shunday bolasi bor ayolning yoki oilaning betob a'zosini parvarish qilish bilan band bo'lgan shaxsning iltimosiga ko'ra, ish beruvchi tibbiy xulosaga muvofiq ularga to'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasi belgilashga majburdir. Homilador ayollarga va bola tuqqan ayollarga yillik ta'tillar, ularning xohishiga ko'ra, tegishlicha homiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin yoxud bolani parvarishlash ta'tilidan keyin beriladi. O'n to'rt yoshga to'lmagan bitta va undan ortiq bolani (o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolani) tarbiyalayotgan yolg'iz ota, yolg'iz onaga (beva erkaklar, beva ayollar, nikohdan ajrashganlar, yolg'iz onalarga) va muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning xotinlariga yillik ta'tillar, ularning xohishiga ko'ra yoz vaqtida yoki ular uchun qulay bo'lgan boshqa vaqtda beriladi.

Bunday ta'til yillik ta'tilga qo'shib berilishi yoki ish beruvchi bilan kelishib belgilanadigan davrda undan alohida (to'liq yoxud qismlarga bo'lib) foydalanilishi mumkin. Ayollarga tuqqunga qadar yetmish kalendar` kun va tuqqanidan keyin ellik olti kalendar` kun (tug'ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug'ilgan hollarda — yetmish kalendar` kun) muddati bilan homiladorlik va tug'ish ta'tillari berilib, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa to'lanadi. Homiladorlik va tug'ish ta'tili jamlangan holda hisoblab chiqilib, tug'ishga qadar amalda bunday ta'tilning necha kunidan foydalanilganidan qat'i nazar ayolga to'liq beriladi.

Homiladorlik va tug'ish ta'tili tugaganidan keyin ayolning xohishiga ko'ra, unga bolasi ikki yoshga to'lgunga qadar bolani parvarishlash uchun ta'til berilib, bu davrda qonunchilikda belgilangan tartibda nafaqa to'lanadi. Ayolga, uning xohishiga ko'ra, bolasi uch yoshga to'lgunga qadar bolani parvarishlash uchun ish haqi saqlanmaydigan qo'shimcha ta'til ham beriladi. Bolani parvarishlash uchun beriladigan ta'tillardan bolaning otasi, buvisi, buvasi yoki bolani amalda parvarishlayotgan boshqa qarindoshlari ham to'liq yoki uni qismlarga bo'lib foydalanishlari mumkin. Ayollar o'z xohishlariga ko'ra, bolani parvarishlash ta'tili davrida to'liq bo'lmagan ish vaqti rejimida yoki ish beruvchi bilan kelishib, uyda ishlashlari mumkin. Bunda ularning nafaqa olish huquqlari saqlanib qoladi. Bolani parvarishlash ta'tillari davrida ayolning ish joyi (lavozimi) saqlanadi. Bu ta'tillar mehnat stajiga lekin hammasini jamlaganda ko'pi bilan uch yil, shu jumladan mutaxassisligi bo'yicha ish stajiga ham qo'shiladi.





Date: 17th April-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahriri) – 2023 yil.
2. Oila kodeksi – O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1998 yil 30 aprel (va unga kiritilgan o'zgarishlar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi – 1995 yil (va unga kiritilgan o'zgarishlar bilan).
4. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 820-sonli qarori – Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlarini tashkil etish to'g'risida.
5. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" – BMT, 1948 yil, 16-moddasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari – Oilani qo'llab-quvvatlash, ko'p bolali va boquvchisini yo'qotgan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish masalalari bo'yicha.
7. O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi faoliyati haqida axborot – gender.uz, rasmiy saytlardan olingan ma'lumotlar.
8. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. INSON HUQUQLARI XALQARO STANDARTLARI VA MILLIY GENDER MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 33-SON 20.10.2024. 166-170-betlar.
9. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila mustahkamligini ta'minlashda ota, ona, farzandlar tarbiyasi o'rni. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-7 ISSUE-10 (30- October) 44-50. VOLUME 7, ISSUE 10 (30- OCTOBER)
10. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila ma'naviyati-jamiyat taraqqiyoti omili. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. 7-jild 10-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.10.2024. 106- 112
11. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 13-mart, 2024-yil 7-jild 3-son. 131-135.
12. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ХУҚУҚИЙ СОҲАДА АЁЛ СИЙМОСИ. MODERN WORLD EDUCATION: NEW AGE PROBLEMS – NEW SOLUTIONS. International online conference. Date: 3 rdFebruary-2025. 40-43-betlar
13. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. OILA GENEZISI. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 8, Issue 03, March (2025). 231-235-betlar
14. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. OILADA MAS'ULIYAT. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 8, Issue 03, March (2025). 227-230-betlar
15. Quvonchbekovna, O. C. The importance of "Kazilik adabi" in Abu Bakr Kasani's work "Badoi-us-sanoe". *International Scientific Journal ISJ Theoretical& Applied Science Philodelphia, USA*, (01).
16. Чубоева, О. НИГИЛИЗМ-ХУҚУҚИЙ ОНГ, ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛИДАГИ ХАВФЛИ ОМИЛИ. In *TURKEY International scientific-online conference:" THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH* (No. 1 Part 5).



Date: 17th April-2025

17. Чубоева, О. О. „ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TAMINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS/2022–PART, 10.*

18. Чубоева, О. Янги Ўзбекистон–III ренессансида хотин-қизлар ижтимоий ҳимояси. a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022)-Copenhagen: 2022.

19. Ozodaxon, C. (2022). Chuboyeva Gulnora. OILA QONUNCHILIGIDA TENGLIK TAMOIYILI. *JODKOR O 'QITUVCHI JURNALI. 5 NOYABR.*

20. Чубоева, О. К. (2017). Правовая культура населения. *Молодой ученый*, (19), 250-253.

21. Чубоева, О., & Хусаинов, Р. (2023). ТАЪЛИМ ИСЛОХОТЛАРИ-ДАВР ТАЛАБИ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(1), 12-16.

22. Ozodaxon, C. (2022). YOSHLARNING HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISH. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(11), 17-21.

23. Chuboyeva, O., & Abdug'aniyev, T. (2022, November). KORPORATIV NORMA NAZARIYASI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 8, pp. 97-101).

24. Ozodaxon, C., & Dilshod, A. (2022). INSON ERKINLIGI HUQUQIY ASOSI-KONSTITUTSIYA. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(3), 47-50.

25. Ozodaxon, C. (2022). New Uzbekistan: Administrative Management Reform. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 9, 123-125.

26. Kuvonbekovna, C. O. (2024). OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. *PEDAGOG*, 7(2), 194-198.

27. Саидисаков, С. С. (2024). ТИЛ БИЛМОҚ-ЭЛ БИЛМОҚДИР. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(2), 191-194.

28. Chuboyeva, O., & Qahhorov, R. (2023). JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR MAQBULLIGI AYRIM MASALALARI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (9), 240-243.

29. Chuboyeva, O., & Toshmammedov, D. (2023). YANGI TAHRIRDA QABUL QILINGAN OZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI—YANGI OZBEKISTON POYDEVORI. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 813-816.

30. Чубоева, Г. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКISTONDA ГЕНДЕР ТЕНГЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРАҚҚИЁТНИНГ ОМИЛИ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 358-362.

31. Ozodaxon, C., & Gulnora, C. (2022). OILA QONUNCHILIGIDA TENGLIK TAMOIYILI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 354-357.

32. Chuboyeva, O. (2021, March). THE STATE OF THE JADIDISM MOVEMENT IS DEVELOPING POSITION. In *Конференции*.

33. Chubayeva, O. (2020). IN “BADOI-US SANOIJ” OBJECTIVES OF SCIENTIFIC PROBLEMS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(3), 248-254.



Date: 17th April-2025

34. Chuboeva, O. (2020). THE IMPORTANCE OF KAZILIK ADABI IN ABU BAKR KASANIS WORK BADOI-US-SANOE. *Theoretical & Applied Science*, (1), 800-803.

